O'zbekistonda davlat audit tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan yangi tashabbuslar muhokama qilinmoqda. Mazkur maqolada taklif etilayotgan bosh inspektor lavozimini joriy etishning ahamiyati va kutilayotgan samaralari, davlat auditi tizimida nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishi, Hisob palatasi hamda boshqa idoralar o'rtasidagi hamkorlikning institutsional asoslari, shuningdek raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish masalalari qamrab olinadi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba bilan taqqoslash orqali O'zbekiston sharoitiga xos xulosalar ishlab chiqiladi.

Davlat auditi va moliyaviy nazorat sohasida samarali tizimni yaratish bugungi kun talabi hisoblanadi. Budget mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash, davlat dasturlari ijrosini nazorat qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat auditi ustuvor ahamiyatga ega. Hisob palatasi tomonidan olib borilayotgan tekshiruvlar natijalari hududlarda hamda vazirliklarda moliyaviy intizomni mustahkamlash zarurligini ko'rsatmoqda. Masalan, Hisob palatasi 2023-yil yakuni bo'yicha davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotida budget mablag'larini samarasiz yoki qonunbuzarlik bilan sarflash holatlari mavjudligini ta'kidlagan. Bunday holatlar ichki nazorat tizimini kuchaytirish hamda tashqi audit rolini oshirish dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, budget mablag'lari ko'p yo'naltiriladigan vazirlik va idoralarda Hisob palatasi vakili sifatida bosh inspektor lavozimini joriy etish haqidagi takliflar xarajatlar ustidan doimiy nazorat o'rnatishga xizmat qiladi. Bu yangi tizim orqali har bir yirik davlat organida mustaqil va malakali nazoratchi bo'lishi ta'minlanadi. Natijada, budget xarajatlarning samaradorligini oshirish, qonunbuzilish holatlarini barvaqt aniqlash hamda mablag'lar talon-toraj qilinishining oldini olishga erishiladi, shu bilan birga aholi oldida davlat organlarining hisobdorligi ortadi.

Dolzarblikni belgilovchi yana bir jihat — davlat auditida zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirishni qo'llash zarurati. Hozirgi kunda axborot texnologiyalari taraqqiyoti audit sohasini ham tubdan o'zgartirmoqda. Katta ma'lumotlar tahlili, elektron ma'lumotlar bazalariga ulanish va sun'iy intellekt yordamida xatarli operatsiyalarni avtomatik aniqlash imkoniyatlari kengayib bormoqda. Bu tashabbuslar dolzarb, chunki raqamli audit vositalari audit qamrovini kengaytirish, inson omili bilan bog'liq xato va tahlilakarni kamaytirish hamda tahlil tezligi va sifatini oshirish imkonini beradi. Masalan, xalqaro tajribada auditda sun'iy intellektni qo'llash orqali moliyaviy hisobotlar to'liqligini tez tekshirish va xatarli tranzaksiyalarni filtrlash amaliyoti kengaymoqda. Shu bois, O'zbekistonda ham auditorlik faoliyatini raqamli texnologiyalar bilan boyitish muhim va o'z vaqtida ko'rilgan choradir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat moliyaviy nazorati va auditing nazariy asoslari hamda xalqaro standartlari bo'yicha adabiyotlarda ta'kidlanishicha, samarali tashqi audit tizimi jamoat mablag'lari ustidan mustaqil nazoratni ta'minlaydi va korrupsiyaning oldini olishga yordam beradi. Davlat auditi tushunchasi ko'pincha moliyaviy nazoratning umumiy tizimining bir qismi sifatida qaraladi. Ilmiy manbalarda davlat auditi — davlat resurslaridan foydalanishning qonuniyligi, samaradorligi va maqsadlilikini baholovchi faoliyat sifatida ta'riflanadi. Tadqiqotlarda samarali audit uchun tashqi audit mustaqilligi ta'minlanishi, ichki audit xizmatlari esa tegishli vakolat va resurslarga ega bo'lishi lozimligi qayd etilgan. Shu bois davlat auditi natijador bo'lishi uchun uni parlament nazorati, fuqarolik jamiyati va institutsional ko'mak kabi omillar bilan birga olib borish tavsiya etiladi.

Hisob palatasi va ichki audit xizmatlarining hamkorligi masalalari ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xalqaro Oliy audit instituti (INTOSAI)ning ko'rsatmalarida tashqi va ichki audit o'rtasida ma'lumot almashinuvi va hamkorlik o'rnatilishi umumiy audit qamrovini kengaytirish, takroriy tekshiruvlarni kamaytirish hamda audit sifatini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi [2]. Bunda hamkorlik muvaffaqiyati uchun taraflar o'rtasida o'zaro ishonch, axborot almashish mexanizmi va vazifalarni aniq taqsimlash zarurligi ko'rsatiladi. Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda davlat auditori tomonidan ichki audit rejaları va hisobotlarini tahlil qilib borish, ularga metodologik yordam berish kabi hamkorlik shakllari samarali ekanligi qayd etiladi. Masalan, INTOSAI standartlarida tashqi va ichki audit o'rtasida muntazam uchrashuvlar o'tkazish, qo'shma auditorlik rejalarini kelishish hamda xulosalar bilan o'rtoqlashish kabi mexanizmlar tavsiya etiladi [3]. Bu ilmiy-nazariy asoslar O'zbekiston sharoitida Hisob palatasining bosh inspektori instituti orqali ichki nazorat tuzilmalari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish g'oyasiga mos keladi.

Raqamlashtirish va sun'iy intellektni auditda qo'llash bo'yicha ilmiy adabiyotlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlarida hozirgi davrda "Audit 4.0" konsepsiyasi shakllanayotgani ta'kidlanadi. Ya'ni, audit jarayonlarida katta ma'lumotlar tahlili, mashinali o'rganish algoritmlari va boshqa intellektual vositalarni joriy etish orqali audit ko'lamini va aniqlanadigan kamchiliklar doirasi kengaymoqda. KPMG xalqaro audit kompaniyasi tadqiqotiga ko'ra, sun'iy intellekt auditorlarga katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamlarini tezlikda tahlil qilish va nohalollik




alamatlarini aniqlash imkonini berib, audit sifatini oshiradi [4]. Shu bilan birga, akademik tadqiqotlarda raqamli audit vositalarini joriy etish auditorlarning malakasini oshirish hamda axborot texnologiyalari bo'yicha ta'limni kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Xalqaro standartlar ham auditda zamonaviy usullardan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi. Demak, davlat auditini raqamlashtirish masalasi nazariya va amaliyot nuqtayi nazaridan asoslangan bo'lib, uni joriy etish bo'yicha xalqaro tajribalar mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar va taklif etilayotgan islohotlar dasturlarini tahlil qilish hamda qiyosiy tahlil usullariga tayanildi. Avvalo, davlat audit va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy bazalar va ularni amalga oshirish bo'yicha tayyorlangan dasturlar mazmuni o'rganildi. Loyihada taklif etilayotgan vazifalar bo'yicha ilmiy asoslar qonunchilik hujjatlari hamda xalqaro standartlar prizmasi orqali tahlil etildi. Shu bilan birga, xorijiy davlatlardagi davlat auditini tashkil etish tajribasini o'rganish uchun qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Jumladan, oliy audit institutlari faoliyati to'g'risidagi xalqaro tashkilotlar (INTOSAI, OECD va boshqalar) materiallari, ayrim davlatlar qonunchilik hujjatlari va tadqiqot maqolalari ma'lumotlari solishtirilib, O'zbekiston modeli uchun xulosalar chiqarishda asos bo'lib xizmat qildi [5]. Tadqiqot davomida Hisob palatasi va ichki audit xizmatlarining hamkorlik amaliyoti bo'yicha mavjud ma'lumotlar ham tahlil etildi. Ilmiy tahlil usullari orqali taklif etilayotgan bosh inspektor institutining samaradorlikka ehtimoliy ta'siri yuzasidan nazariy xulosalar shakllantirildi. Shuningdek, raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning amaliy ahamiyatini asoslash uchun xalqaro ekspertlar tavsiyalari va raqamli audit bo'yicha misollar o'rganildi. Mazkur uslubiy yondashuvlar maqolada ko'tarilgan masalalarni har tomonlama yoritish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat audit tizimini takomillashtirish bo'yicha ilgari surilayotgan tashabbusli dasturlardan biri — Hisob palatasining vakili sifatida bosh inspektor lavozimini joriy etishdir. Taklifga ko'ra, budjetdan yirik mablag'lar oluvchi vazirliklar, idoralar va barcha viloyat hokimliklarida Hisob palatasining vakili bo'lgan bosh inspektor lavozimi tashkil etiladi. Xususan, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Madaniyat vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Sport vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Transport vazirligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Energetika vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Milliy gvardiya, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va barcha hududiy hokimliklar ushbu ro'yxatga kiritilgan. Taklifga muvofiq, har bir bunday tashkilotda mavjud ichki nazorat tuzilmasidan bir shtat birligini qisqartirish hisobidan bosh inspektor lavozimi tashkil etiladi. Bu amaliyot orqali ichki audit va Hisob palatasi o'rtasida ko'priq vazifasini bajaruvchi vakolatli nazoratchi muntazam ravishda faoliyat yuritadi (1-rasm).



1-rasm. Davlat audit tizimidagi asosiy institutsional hamkorliklar tuzilishi

Bosh inspektorning mustaqilligi Hisob palatasiga bo'ysungan holda kafolatlanadi. U tashkilot rahbariyatiga emas, balki mustaqil oliy audit organiga hisob beradi. Shu tufayli, bosh inspektor aniqlagan muammolar yuzasidan xolis xulosa chiqarishi va ularni Hisob palatasiga yetkazishi mumkin. Bosh inspektor instituti esa bu ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etadi.

Tashabbusning yana bir muhim jihati — bosh inspektorning vazifalari keng qamrovli etib belgilanganidir. Loyihada ular 11 bandda bayon etilgan: budget qonunchiligi buzilishining oldini olish va profilaktika choralarini tashkil etish; budget mablag'lari uchun belgilangan maqsadli indikatorlarga erishish holatini tahlil qilish; davlat tashqi qarzi va grantlar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalarni boshidan yakunigacha nazorat qilish; davlat xaridlari qonunchiligi ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish; subsidiyalarning manzilliligini nazorat qilish; "Situatsion markaz"larning samarali faoliyatini yo'lga qo'yish; ichki nazorat tuzilmalari xodimlari hamda "xavflarni boshqarish" qo'mitalari faoliyatini muvofiqlashtirish; budgetdan tashqari jamg'armalar va qo'shimcha daromadlarning maqsadli sarfini monitoring qilish; mas'ul tashkilotlarga samaradorlik va tejamkorlik bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish; ijtimoiy-ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarida qurilish xarajatlarini monitoring qilish; davlat budjeti xarajatlarining samarali va maqsadli ishlatilishi bilan bog'liq boshqa tadbirlarni amalga oshirish. Ushbu vazifalar faqat tekshiruv o'tkazishni emas, balki profilaktika va tahlilni ham qamrab olib, davlat organlari faoliyatining har bir bosqichida xarajatlar samaradorligini ta'minlashga qaratilgan.

Bosh inspektor institutini joriy etish "uzluksiz audit" (continuous auditing) konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi. Ilgari Hisob palatasi yillik rejaga asosan ma'lum davrda tekshiruv o'tkazgan bo'lsa, endi bosh inspektorlar tashkilotda doimiy asosda faoliyat yuritadi va har qanday muhim moliyaviy operatsiyani joyida nazorat qilib borishi mumkin. Bu nazoratning uzluksizligi va tezkorligini ta'minlaydi hamda moliyaviy qonunbuzilishlarni barvaqt aniqlash imkonini yaratadi. Bosh inspektorlar "Masofaviy audit" axborot tizimlari orqali Hisob palatasi bilan onlayn ma'lumot almashadi va tashkilotning moliyaviy ma'lumotlarini markazga uzatib boradi. Shu tariqa, taklif etilayotgan bosh inspektor instituti davlat auditida ichki va tashqi nazoratni uyg'unlashtiruvchi yangi model sifatida namoyon bo'ladi.

Tayyorlanayotgan islohotlar davlat auditida nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va hisobdorlikni oshirishga ham qaratilgan. Tashabbuslardan birida Hisob palatasi faoliyatiga boshqa organlarning aralashuvini cheklash va har qanday shaxslar tomonidan o'z manfaatlariga mos tekshiruv o'tkazishni talab qilishni taqiqlash nazarda tutilgan. Bu chora Hisob palatasi mustaqilligi va xolisligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, auditorlik tadbirlarining davomiyligi va qamrovi tekshiruvning miqyosi hamda murakkabligiga qarab mustaqil belgilanadi. Shu tariqa, sun'iy muddat va hajm cheklovlarisiz to'liq tahlil o'tkazish imkoniyati yaratiladi. Bunday yondashuv auditorlarga obyekt faoliyatini chuqur o'rganish, xatarli sohalarni aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha asosli tavsiyalar berish imkonini beradi.

Islohotlar loyihasida nazoratni yanada samarali qilish maqsadida tashkilot rahbarlarining shaxsiy hisobdorligini oshirish ham ko'zda tutilgan. Taklifga ko'ra, respublika va mahalliy ijro hokimiyati organlarining birinchi rahbarlari bosh inspektor faoliyatini tashkil etish hamda dasturda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish uchun shaxsan mas'ul va javobgar hisoblanadi. Agar bosh inspektor aniqlagan kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmasa yoki u o'z vazifasini bajarishiga to'sqinlik qilinsa, idora rahbari javobgarlikka tortilishi mumkin. Boshqaruvda hisobdorlikni kuchaytirish bo'yicha bunday chora-tadbirlar xalqaro tajribada "accountability" tamoyiliga mos keladi hamda boshqaruv organlarida moliyaviy intizomni oshirishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan tizimda nazorat natijalarini shaffoflik asosida jamoatchilikka yetkazish masalasi ham muhim o'rin tutadi. Hisob palatasiga ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda audit jarayonlarining maqsad va vazifalarini aholiga tushuntirish, audit natijalarini tahlil qilish va ularni jamoatchilikka yetkazish bo'yicha vazifalar yuklatilgan. Bu jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda davlat organlarining jamoat oldidagi hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Islohotlar doirasida bosh inspektorlar faoliyati samaradorligini baholash uchun asosiy ko'rsatkichlar (KPI) ishlab chiqilishi ham rejalashtirilgan. Taklifga ko'ra, har bir bosh inspektor uchun aniq samaradorlik mezonlari belgilanadi, masalan, aniqlangan qonunbuzarliklar soni va miqdori, oldi olingan samarasiz xarajatlar ulushi, berilgan tavsiyalarining amalda tatbiq etilishi kabi ko'rsatkichlardan foydalanish nazarda tutilgan. KPI orqali bosh inspektorlar faoliyati natijadorligi ochiq va shaffof ko'rinishda baholanadi hamda ularning mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimi ko'p qirrali bo'lib, unda Oliy audit organi (Hisob palatasi), ichki audit xizmatlari, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti huzuridagi Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi, Moliya vazirligi tizimidagi nazorat tuzilmalari hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi kabi qator idoralar ishtirok etadi. Ushbu tizim elementlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va ma'lumot almashinuvi umumiy nazorat samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bosh inspektor instituti joriy etilishi bu hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda.



Avvalo, bosh inspektor ichki audit xizmatlari bilan hamkorlik qilib, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Taklifga ko'ra, bosh inspektor ichki nazorat tuzilmalari xodimlari hamda idoralardagi "xavflarni boshqarish" qo'mitalari faoliyati samaradorligini oshirish va ularni muvofiqlashtirish uchun mas'ul hisoblanadi. Demak, bosh inspektor o'zi faoliyat yuritayotgan vazirlik yoki hokimlikda ichki auditchilar ishini muvofiqlashtiruvchi shaxs sifatida qatnashadi. U yillik ichki audit rejalarini ko'rib chiqib, ularni Hisob palatasining umumiy nazorat rejasiga moslashtirishda yordam beradi. Bu esa takroriy tekshiruvlarning oldini olish, resurslarni tejash va sohalarni to'liq qamrab olish imkonini yaratadi. Xalqaro standartlar asosida tashqi va ichki audit o'rtasida o'zaro ma'lumot almashish hamda hamkorlikni yo'lga qo'yish umumiy audit qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bosh inspektor instituti orqali Hisob palatasi va vazirliklar o'rtasida institutsional bog'lanish kuchayadi. Ilgari Hisob palatasi tekshiruvlari faqat ma'lum davrda o'tkazilib, yakuniy xulosa bilan cheklangan bo'lsa, endi doimiy vakil sifatida faoliyat yurituvchi bosh inspektorlar vazirlik faoliyatini uzluksiz kuzatib boradi. Bu yangicha model davlat auditining barcha bosqichlarini qamrab olgan tizimni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, ichki va tashqi nazoratning uyg'unlashuvi ta'minlanadi.

Hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi — Hisob palatasi, Moliya vazirligi va uning nazorat tuzilmalari o'rtasidagi aloqadir. Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi budjet mablag'laridan foydalanish yuzasidan o'z vakolati doirasida tekshiruvlar o'tkazib keladi. Taklif etilayotgan islohotlar ushbu inspeksiya, Hisob palatasi, auditorlar palatasi va boshqa idoralar o'rtasida "fan-ta'lim-ishlab chiqarish" tamoyili asosida hamkorlikni yo'lga qo'yishni nazarda tutadi. Bunda kadrlar tayyorlash, umumiy axborot platformalarini yaratish, budjetdan tashqari jamg'armalar xarajatlarini monitoring qilish va davlat mulkidan foydalanish ustidan nazoratni raqamlashtirish bo'yicha hamkorlik mexanizmlari ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bosh inspektorlar orqali aniqlangan korrupsiyaviy omillar to'g'risida ma'lumot olishlari mumkin. Chunki bosh inspektorning vazifalariga manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish va affillanganlik holatlarini aniqlash ham kiradi. Bu hamkorlik moliyaviy nazorat tizimining umumiy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Institutsional tahlil shuni ko'rsatadiki, bosh inspektor instituti joriy etilishi natijasida davlat moliyaviy nazoratining turli subyektlari o'rtasida yangi muloqot va koordinatsiya mexanizmi shakllanadi. Ushbu mexanizm samarali ishlashi uchun ichki va tashqi auditni muvofiqlashtirish, axborot almashish jarayonini avtomatlashtirish hamda har bir idoraning mas'uliyatini aniq belgilash zarur. Shu maqsadda loyihalar doirasida mazkur masalalarni huquqiy jihatdan mustahkamlash ko'zda tutilgan.

Davlat auditining zamonaviy modeli raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etadi. Islohotlar loyihasida 2026–2027-yillarga mo'ljallangan davlat auditini raqamlashtirish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari o'z aksini topgan. Xususan, davlat mulki va davlat ulushi mavjud korxonalarning moliyaviy holatini monitoring qilish uchun elektron platformalar ishlab chiqish, davlat xaridlarini to'liq elektron tizim orqali nazorat qilish, vazirlik va idoralarning moliyaviy ma'lumotlariga yagona axborot bazasi orqali kirish imkoniyatini yaratish kabi vazifalar belgilangan. Bu choralar "elektron audit" konsepsiyasini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, audit obyektlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar elektron shaklda avtomatik yig'ilib, tahlil qilinadi. Natijada, auditorlar xatrlarni barvaqt aniqlay olish imkoniga ega bo'ladi.

Bosh inspektorlar faoliyatida ham raqamlashtirish alohida o'rin tutadi. Ular nazorat qilinayotgan idoraning axborot tizimlariga ulanib, "Masofaviy audit" axborot tizimiga ma'lumot kiritadi. Bu tizim Hisob palatasiga markazlashgan ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi. Vazirliklarning buxgalteriya hisoblari, budjet ijrosi hisobotlari va davlat xaridlariga oid ma'lumotlar ushbu tizim orqali uzatiladi, natijada Hisob palatasi ularni avtomatik tarzda tahlil qilishi mumkin bo'ladi. Katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali milliardlab tranzaksiyalarni monitoring qilish, xarajatlar smetalarini solishtirish va anomal holatlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bu usullar audit samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois mamlakatda raqamli auditni joriy etish orqali audit qamrovi kengayadi, inson omili bilan bog'liq xato va korrupsiya xavflari kamayadi, tahlil tezligi hamda aniqligi esa ortadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda davlat audit va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlar milliy modelda yangi bosqichni boshlab berishi mumkin. Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin.

Taklif etilayotgan bosh inspektor lavozimi mamlakat davlat audit tizimida innovatsion qadam bo'lib, ichki va tashqi auditni uyg'unlashtiruvchi gibril nazorat modeli sifatida qaraladi. Har bir yirik davlat organida Hisob palatasi vakili bo'lgan nazoratchi doimiy ravishda faoliyat yuritadi, bu esa moliyaviy xatolarni barvaqt aniqlash va budjet xarajatlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mazkur yondashuv o'z vaqtida mablag' sarfini nazorat qilish bilan birga profilaktika va tahlilni ham qamrab oladi.

Nazorat va hisobdorlikni kuchaytirishga qaratilgan tashabbuslar Hisob palatasi mustaqilligi va ta'sirchanligini oshiradi. Hisob palatasi faoliyatiga aralashuvni cheklash, auditorlik tadbirlari davomiyligini samaradorlik mezonlariga asoslanib belgilash hamda vazirlik rahbarlarini shaxsan javobgar etib belgilash ularning mas'uliyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu rahbarlarni moliyaviy intizomga jiddiy yondashishga majbur etadi va xalqaro "accountability" tamoyilini amalda qaror toptiradi.

Hisob palatasi va boshqa nazorat tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha tashabbuslar yangi institutsional mexanizmni shakllantiradi. Bosh inspektorlar orqali ichki audit xizmatlari, Moliya vazirligi nazorat inspeksiyasi, auditorlar palatasi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida ma'lumot almashinuvi va muvofiqlashtirish tezlashadi. Bu umumiy nazorat tizimining samaradorligini oshiradi, takroriy tekshiruvlarni kamaytiradi hamda xatarli sohalarni o'z vaqtida yoritishga imkon beradi.

Raqamlashtirish va sun'iy intellektni joriy etish bo'yicha tashabbuslar mamlakat davlat audit modelini zamonaviy tendensiyalarga moslashtiradi. "Masofaviy audit" axborot tizimi, elektron davlat xaridlari monitoringi, katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt algoritmlari audit jarayonlarini tezkor, aniq va shaffof amalga oshirishga yordam beradi. Bunday texnologik yondashuvlar inson omillari bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi, xarajatlar ustidan uzluksiz nazorat o'rnatadi hamda strategik qarorlar qabul qilishda tezkor analitik ma'lumot taqdim etadi.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, taklif etilayotgan islohotlar orqali "O'zbekiston modeli" shakllanishi mumkin. Bu model oliy audit instituti mustaqilligi, ichki audit bilan uyg'un hamkorlik, rahbariyatning shaxsiy hisobdorligi va raqamli texnologiyalar bilan qurollangan nazorat amaliyotini o'z ichiga oladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakat milliy audit modelida o'ziga xos xususiyatlar mavjud, biroq asosiy tamoyillar — mustaqillik, xolislik, samaradorlik va hisobdorlik — barchaga umumiydir. O'zbekistonda davlat auditi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish bo'yicha ilgari surilayotgan chora-tadbirlar aynan shu tamoyillarni amalda ro'yobga chiqarishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu islohotlar o'z samarasini berishi uchun ularni amalga oshirish jarayonida huquqiy baza, institutsional mexanizmlar va kadrlar salohiyatini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Hisob palatasi to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 1-iyul, O'RQ-546-son. (Hisob palatasi mustaqilligi va vakolatlari haqida).
2. INTOSAI. "Internal Auditors and Supreme Audit Institutions Cooperation Guidance" (INTOSAI GOV 9150), 2022-yil. (Tashqi va ichki audit hamkorligi tamoyillari).
3. INTOSAI Development Initiative. "SAIs and Big Data" hisoboti, 2020-yil. (Davlat auditida katta ma'lumotlar tahlili ahamiyati).
4. KPMG. "The power of AI and data analytics in audit execution." 2023. (Auditda sun'iy intellekt qo'llash bo'yicha tavsiyalar).
5. IMF. "The Role of Supreme Audit Institutions in Addressing Corruption" (2021). (Oliy audit institutlari va yaxshi boshqaruv).
6. OECD. "Supreme Audit Institutions and Good Governance." 2016. (Oliy audit organlarining samarali faoliyati bo'yicha tadqiqot).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100